

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ZONOMIK FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Odina Xoshimova Olim qizi, NamDCHTI tayanch-doktoranti

Annotatsiya: Frazzeologiya tilning eng jonli qismi bo‘lib umumiste’ moldagi tilning eng katta tarkibiy qismi sifatida o‘rganish, uni leksik-semantik aloqa nuqtai nazaridan izohlash natijasida bu tUSDagi ya’ni zoofrazzeologiyalarni orasidagi semantik aloqalarni o‘rganish va bu aloqalarning chegarasini aniqlash bilan bir qatorda, bunday zoonimlar kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan, tahlil qilish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola zoonimik komponentli frazeologik birliklarni leksik-semantik jihatdan (o‘zbek va ingliz tillarida) o‘rganishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: frazeologizmlar, leksik aloqa, semantik aloqa, zoonimlar, tafakkur va tillar

Annotation: Phraseology is the most lively part of the language, the largest component of the common language, and its interpretation from the point of view of lexical-semantic relations, as well as the study of the semantic relations between zoophraseologies and the definition of the limits of these relations. From the point of view of cognitive linguistics, the analysis of such zoonyms is of particular importance. This article is devoted to the lexical-semantic study of phraseological units with a zoonymic component (in Uzbek and English).

Key words: phraseology, lexical communication, semantic communication, zoonyms, comprehension and languages

Аннотация: Фразеология – самая живая часть языка, самый крупный компонент общего языка, и его интерпретация с точки зрения лексико-семантических отношений, а также изучение семантических отношений между зоофразеологиями и определение пределов лексико-семантических отношений. Эти отношения. С точки зрения когнитивной лингвистики анализ таких зоонимов имеет особое значение. Данная статья посвящена лексико-

семантическому изучению фразеологизмов с зоонимическим компонентом (на узбекском и английском языках).

Ключевые слова: фразеология, лексическая коммуникация, семантическая коммуникация, зоонимы, понимание и языки.

Frazeologizmlarda tilning milliy xususiyati, millatning tafakkuri, uning tarixi va madaniyati, bugungi va ertangi kuni rasm-rusumi, urf-odatları va shular bilan birgalikda bu xalqning zoonimlarga bo‘lgan munosabati ham aks etadi. Tafakkur va ong jarayonlari hamma insonlarda bir xil kechadi, lekin har bir millat muayyan geografik va tarixiy sharoitda yashaydi. Shu sababli ham uning obrazli mulohaza, fikrlash tarzi o‘ziga xosdir.[1,151]

B.A. Larinning so‘zlariga ko‘ra, “Tong nuri shudring tomchisida aks etgandek”[2, 150] Frazeologizmlar har doim bevosita yoki bilvosita hayotimizni va atrofimizdagi olamni aks ettiradi, shu asosida dissertatsiya hayotini frazeologizmlar ilmiga bag‘ishlagan quyidagi olimlarning fikrlarini umumlashtirish asosida yozilgan.

Tilshunoslar tomonidan olib borilgan ko‘p yillik izlanishlar, bir tilli va ko‘p tilli frazeologik lug‘atlar tahlili quyidagi xulosalarga kelishimizga asos bo‘lmoqda:

Ba’zi tilshunoslar tomonidan ta’kidlanganiday, ular tildagi “ortiqcha” unsurlar emas, ular tilning ahamiyatli, zaruriy semantik “dunyo”sini to‘ldiruvchi hodisadir [3, 68]. Bunday iboralarsiz til o‘ta “qashshoq” holda bo‘lgan bo‘lar edi. Hayotda iboralar o‘z o‘rnida ishlatilmagan bironta ham jabha yo‘q. Fikrimiz isboti tariqasida frazeologik iboralarning o‘zbek va ingliz tillarining semantik dunyosini boyitish, predmet va hodisalarni nomlash, individ his-tuyg‘ularini ifodalashda o‘ziga xos muloqot vositasi ekanligini quyidagi misollar orqali ko‘rsatishimiz mumkin.

1. Odamning fiziologik holatini ifodalashda: suvga tushgan mushukday;
2. Shaxsning shoshqaloqligini ifodalashda: oyog‘i kuygan tovuqday;
3. Shaxslarni oralaridagi munosabatni buzilishini ifodalashda: oralaridan qora

mushuk o‘tib qoldi;

4. E’tibor bermaslikni ifodalashda: it hurar, karvon o‘tar;

kabi hayotiy voqelikni, hodisalarni, betakror tushunchalarni ifodalovchi frazemalarning sonini cheksiz ko‘paytirish mumkin. Ular ifoda qilayotgan nozik tuyg‘u, ishora va bo‘yoqdorlikni tilning boshqa birliklari orqali ifodalsh o‘ta mushkul. Frazemalar har bir xalqning, jumladan, o‘zbek xalqining asrlar davomida saqlab kelayotgan noyob boyligidir. Obrazlar hamda shu xalqning urf-odat psixologiyasida qanday ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. Masalan, o‘zbek iboralarida gorilla, panda, pigmat, zebra kabi hayvonlarning iboraviy ifodasini izlash befoydadir. Chunki mazkur so‘zlarni ifodalab kelgan hayvonlar bizning xalqimiz hayoti, madaniyati va turmush tarzida hech qanday ahamiyatga ega emas. Shuning uchun o‘zbek tilida qator frazeologizmlar shu hududda yashovchi hayvon nomlari bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov, Muhiddinov “Frazeologik birliklarning asosiy ma’no turlari” Toshkent-1995
2. Khoshimova, D. M., & Inomiddinova, D. I. (2015). COMPARATIVE STUDYING THE WORLD OF ANIMALS IN" BABURNAME" BY ZM BABUR. Вестник современной науки, (9- 1), 97-99.
3. Khoshimova, D. (2022). THE TRANSLATION PROBLEMS OF LINGUOCULTURAL PECULIARITIES OF “BABURNAME”. Gospodarka i Innowacje., 24, 1067-1069.
4. Khoshimova, D. (2020). GENERAL AND CONDITIONAL PECULIARITIES OF DESCRIPTIVE MEANS IN" BABURNAME". The Scientific Heritage, (49-3), 50-51.
5. Khoshimova, D. (2019). The place of author's personal and interpersonal comparison means in translation of «Baburname». Sciences of Europe, (45-5 (45)), 46-48.